

HARBIY TAYYORGARLIKNI ZAMONAVIYLASHTIRISHNING MUHIMLIGI TA‘LIM JARAYONIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH

Sherov Mansur Boltayevich

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi,

f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, mayor

Annotatsiya: *Ushbu maqola kreativ fikrlash g‘oyasini ochib beradi. U zamonaviy talablarga javob beradigan, har sohada kreativ bo‘la oladigan mutaxassislar sonini oshirish orqali rivojlanishni takomillashtirishni ko‘rsatadi. Harbiy xizmatchilar orasida kreativ fikrlashni shakllantirish borasida muhim fikrlar ilgari surilgan. Harbiy tayyorgarlikni zamonaviylashtirishning muhimligi ta‘lim jarayonida kreativlikni shakllantirishdir. Harbiy xizmatchilar orasida shaxsiy tarkibni kreativ ruhda tarbiyalash to‘liq qo‘llab-quvvatlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Kreativlik, chuqur fikrlash, kreativ fikrlash, zamonaviylashtirish, fikrlashning ilmiy usuli, taktik chuqur mulohaza, dialektga oid kreativlik.*

Annotation: *This article explains the idea of creative thinking. It demonstrates the improvement of development by increasing the number of professionals who meet modern requirements and can be creative in any field. Important ideas have been put forward on the formation of creative thinking among military personnel. The importance of modernizing military training is to form creativity in the educational process. Fostering a personal spirit of creative content among military personnel is fully supported.*

Keywords: *Creativity, deep thinking, creative thinking, modernization, scientific method of thinking, tactical deep thinking, dialectical creativity.*

Bugungi kunda jamiyatimizning faol bo‘g‘ini sifatida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida tarbiyalanayotgan yosh harbiy xizmatchilarning iqtidori, bilimi va madaniyatini yuksaltirish dolzarb hisoblanadi. Xususan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” [1] vazifalari belgilangan.

Hozirgi vaqtda dunyoning Foundations of creative education (AQSH), Musashino Art University (Yaponiya), Chinese Academy of Social Sciences (Xitoy), European Union Institute for Security Studies (Fransiya), German Council on Foreign Relations (Germaniya), Central European University (Vengriya), University of Tennessee (Italiya), Charles University (Chexiya), Krayetiv tafakkur instituti (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi (O‘zbekiston) va boshqa mamlakatlarda ham harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish bosqichlarini o‘rganish, ularning harbiy ta‘lim modernizatsiyasidagi faolligini oshirish, harbiy kasbiy faoliyat doirasida zarur bilim, ko‘nikma, malakalar egallashni, harbiy ta‘lim muammolari ustida ishlashda mustaqil va ijodiy yondashuvini ta‘minlovchi kreativ tafakkur imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy loyihalar jamiyat hayotiga

tadbiq qilinmoqda. Ushbu ilmiy ishlanmalar harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishning yangi modellarini ishlab chiqishda, bu yo‘nalishdagi olib borilayotgan islohotlarni xalqaro munosabatlarga integratsiyalashda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganidek: «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat‘iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz»[2].

Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Harbiy xizmatchilarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Ularning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an‘anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Kreativ fikrlash - bu dialektik fikrlashning eng yuqori shaklidir. Bunday holda, atipik, nostandart taktik vaziyatlarni, vazifalarni mustaqil ravishda hal qilish, ularning yechimiga yangilik kiritish va yangi fokuslar va harakat usullarini topish muhim. Shunday qilib, taktik fikrlash bu ijodiy fikrlashdir, chunki jangovar amaliyotda ikkita mutlaqo bir xil taktik sozlashlar, janglar, shuningdek, standart holatlar va ma‘lumotlar to‘liq ravishda namoyon bo‘lmaydi. Bunday muhitda qo‘mondon shartli vaziyatni tezda baholashi, tezlik bilan tegishli qaror qabul qilishi va uni amalga oshirishi talab etiladi.

Hozirgi vaqtda harbiy-siyosiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish uchun kursantlardan ijodiy fikrlash, kasbiy harakatchanlik va fundamental bilimlarga ega bo‘lish talab etilmoqda. Oliy harbiy o‘quv yurtlarining vazifasi kelajakda yuqori darajadagi harbiy xizmatga qodir zobitlarni tayyorlash, qo‘shinlardagi o‘quv jarayoni va o‘qitish bilan bog‘liq ta‘lim sifatini ta‘minlashdan iborat bo‘lib qolmoqda. Shuni yodda tutish kerakki, bo‘ljak ofitserni oliy harbiy o‘quv yurtida o‘qitish jarayoni o‘zgacha ma‘no-mazmun kasb etadi. Chunki kursant kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda shaxsiy fazilatlarini (kommunikativ, tashkiliy, tahliliy) rivojlantirishlari va ijodiy fikrlash tarzini shakllantirishlari kerak bo‘ladi. Hech shubha yo‘qki, ijodiy fikrlash va innovatsion usullarni puxta egallash ofitserga o‘z vazifasini uzoq vaqt davomida hal qilishga imkon beradi.

Zamonaviy sharoitda kreativ fikrlash ixtisoslashgan harbiy ta‘lim muassasalarida kursantlarning asosiy maqsad va vazifalariga aylantirish dolzarb ahamiyatga ega. Umumiy gumanitar fanlar blokining o‘quv materialini asosida kursantlarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish juda muhimdir, chunki bugungi kursant va ertangi kun harbiy qismlari harbiy xizmatchilarining shaxsiy va individual xususiyatlarini shakllantirish ushbu muammoni hal qilishga chambarchas bog‘liq.

Kursantlarni ijodiy rivojlanish darajalariga ko‘ra intellektual, motivatsion, ixtiyoriy, mavzuiy-amaliy va hissiy sohalarga bo‘linadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan kursantlar past darajada natijalar ko‘rsatadi: bunday kursantlar reproduktiv faoliyatni afzal ko‘radilar, aqliy faoliyatning tabiati bo‘yicha, konvergent fikrlash ustunlik qiladi, o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi past, tashvishlanish darajasi yuqori, boshqalar bilan aloqa qilish qobiliyati sust bo‘ladi.

Harbiy ta‘lim muassasalarida intellektual va ijodiy faoliyatning bosqichma-bosqich dasturini tayyorlash, ijodiy muammoni hal etishda, rivojlanish jarayonida belgilangan maqsadni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan, integratsiya va tashkiliy-amaliy tamoyilni amalga oshiradigan tashkiliy-protsessual komponent ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Qurollik Kuchlarning insonparvar maqsadlari va vazifalari insonga hayotini harbiy xizmatga bag‘ishlagan holda hayot mazmuniga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Biroq ushbu imkoniyat yuqorida tilga olingan maqsadlar va vazifalar amaliyotga to‘liq joriy qilinsa, Qurolli Kuchlarning ichidagi munosabatlar zobitga o‘zining mavjud shuuriy ijodiy salohiyatini ishga solishga imkon bersa va uning o‘zi hayot mazmunini ilmiy tushunishni egasi bo‘lsagina voqelikka aylanadi. Ushbu vazifa boshqaruv va tarbiyalash subyektlari faoliyati bir necha yo‘nalishlarini amalga oshirish bilan hal qilinishi mumkin. Bu yo‘nalishlardan eng muhimlari quyidagilardir:

Qurolli Kuchlar maqsadlari va tuzilmalarini hayotning obyektiv talablariga moslashtirish;

zobitning shaxsiy manfaatlari va xizmat talablarining imkon qadar mos kelishini ta‘minlovchi munosabatlar tizimini yaratish;

zobitlarni xizmat joylariga taqsimlashda ijtimoiy adolatni amalga oshirish;

Qurolli Kuchlarni isloh qilish chog‘ida lozim va mavjud, ideallik va voqelik, so‘z va ish o‘rtasidagi jarlikni kamaytirish;

harbiy xizmatda hayot va maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini takomillashtirish;

zobitlarning, barcha xizmatchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash va xakazolar.

Harbiy boshliqlar faoliyatining ushbu yo‘nalishlari, zobitning hayot mazmuniga bo‘lgan extiyojlarini qondirishni imkon qadar ta‘minlaydigan tashqi muhitni shakllantirishga sharoit yaratadi. Ayniqsa, bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamli bo‘lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlarda ko‘zga tashlanayotgan bir holatga e‘tiboringizni qaratmoqchiman. YA‘ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta‘sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma‘lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch hayot sharoitida ham davolash juda murakkab masaladir. Shu munosabat bilan tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bo‘yicha prinsipial jihatdan yangi meyoriy hujjatlar ishlab chiqishi zarur. Bu borada asosiy e‘tiborni harbiy-amaliy masalalarni hal etishga yo‘naltirish lozim. Harbiy xizmatchilar har tomonlama sog‘lom va chidamli bo‘lishi, har qanday murakkab jismoniy va ruhiy sinovlarga bardosh berishi kerak” [3].

Harbiy-ilmiy bilimlarni harakatchanligi va o‘zgaruvchanligi, ularni qo‘lga kiritish usullarini S.I.Krupnoy ta‘kidlab o‘tgan. U ko‘proq harbiy ilmiy bilimlarning mazmuni va chegaralari ijtimoiy jihatdan shartli ekanligiga e‘tibor qaratgan[4]. S.V.Klyagin harbiy tadqiqotchining o‘rganish faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar majmuini tahlildan o‘tkazgan (shu asnoda qadriyatli, ijtimoiy-madaniy sharoitlar rolini alohida ajratib ko‘rsatgan) harbiy-ijtimoiy tadqiqotlardagi fan namunalari dinamikasini bunday ko‘rib chiqish nuqtai-nazaridan harbiy ilmiy o‘rganish asoslari, mazmuni va usullarining o‘zgaruvchanligini umumlashtiruvchi o‘rganishning konseptual-nazariy vositalarini sinovdan o‘tkazilgan[5]. S.A.Tyushkevichning asarlarida harbiy olimning o‘rganish faoliyatida paradigmal tafakkurning zamonaviy namunalari shakllanishi[6]. to‘g‘risidagi xulosalar asoslab berilgan, harbiy tadqiqotchining davrning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, ma‘naviy, tarixiy vaziyatlariga tobe

ekanligi ta’kidlangan, shuningdek muallif tomonidan 21 asrdagi extimoliy urushlar xususiyatiga bo‘lgan qarashlar qayta mulohazadan o‘tkazilgan.

Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Bo‘lajak ofitserlarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Ularning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega kursant o‘z faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, zamonaviy fanlardagi ilg‘or yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblari bilan doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi. Odatda kursantlarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari o‘z kasbiy faoliyatidagi muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, ijod bu murakkab jarayon shu sababli insonga xos bo‘lgan kreativ tafakkurni shakllantirishda bu hodisa alohida ahamiyat kasb etadi. Kreativ tafakkur bu mustaqillik va tanqidiy fikrlash, turli darajadagi muammolarni o‘ziga xos tarzda yechish demakdir. Kreativ tafakkur bu insonlar tomonidan umumiy tarzda qabul qilingan qarorlarga o‘zgacha munosabat bildirish yoki bu borada ko‘plab muqobil fikrlarni ilgari surish qobiliyati, tavakkal qilishga tayyorlik, axborotni tezlik bilan qayta ishlash qobiliyatining mavjudligidir.

Ikkinchidan, harbiy kadrlarni tayyorlash ko‘p jihatdan ofitserlarning kreativ tafakkurini shakllantirish jarayoni va rivojlanish istiqbollari bilan belgilanadi, bu esa o‘z navbatida jamiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, zamonaviy harbiy-texnik taraqqiyot, hozirgi davrda harbiy ishlanmalarning holati va rivojlanish istiqbollari bilan xarakterlanadi.

Uchinchidan, harbiy o‘quv yurtlarida ofitserlarni tayyorlash ularning umumiy ma’lumot darajasi, madaniyati, intizomi, harbiy-kasbiy bilim, ko‘nikma, ijodiy fikrlash qobiliyatiga egaligi va zaruriy axloqiy va jangovar fazilatlarini shakllantirish jarayonidir. Ushbu muammolarning yechimi harbiy xizmatchi faoliyatidagi kreativ tafakkurni shakllantirish bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, oliy harbiy maktab bu nafaqat oliy umumiy ma’lumot va kasbiy tayyorgarlik maktabi, balki bu, eng avvalo, kursantlarda keng dunyoqarashni shakllantirish, boy tasavvurlarni yuzaga keltiradigan, maqsadga muvofiq faoliyat yuritishga undaydigan, ijodiy fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi o‘ziga xos ta’lim maskanidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - B.14.
3. <http://uza.uz/oz/politics/Qurolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-va-taraqqiyetini-II-01-2018>.

4. Иванов А.И. Взаимодействие рационального и иррационального в воинской деятельности: Автореф. дис. ...канд. филос. наук,- М., 1997.-С.16-17.
5. Крупное С.И. Логико-методологический анализ военно-научных знаний: Автореф. дис. д-ра филос. наук. - М., 1971. -59 с.
6. Клягин С.В. Динамика образов науки в военно-социальных исследованиях. - М.: ВУ, 1998. - С.26-30.